ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

MEDIA TA'LIM – ZAMONAVIY TA'LIMNING AJRALMAS QISMI

Shonazarova Nargiza Qaxramonovna
Qodirov Ulug'bek Ismoilovich
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tadqiqotchilari
shonazarovanargiza818@gmail.com
ulugbekk720@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mediata'lim bugungi axborot asrida ta'lim jarayonlarining ajralmas qismi sifatida ekanligi hamda raqamli savodxonlik yordamida o'quvchilarda tanqidiy fikrlsh, axborotni tahlil qilish, media mahsulotlarni ongli ravishda qabul qilish ko'nikmalari shakllanishi, xorijiy tajribalar va amaliy yondashuvlar bayon qilingan.
Kalit so'zlar: mediasavodxonlik, mediata'lim, "Soyabon", axborot, axborotlashgan jamiyat, mediamahsulot, "beshinchi unsur", internet, "Information is power".

МЕДИА ОБРАЗОВАНИЕ – НЕОТЪЕМЛЕМАЯ ЧАСТЬ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматривается важность медиаобразования как неотъемлемой части образовательных процессов в современную информационную эпоху, а также развитие у учащихся навыков критического мышления, анализа информации и осознанного восприятия медиапродуктов посредством цифровой грамотности, зарубежного опыта и практических подходов.
Ключевые слова: медиаграмотность, медиаобразование, «Зонтик», информация, информационное общество, медиапродукт, «пятый элемент», интернет, «Информация - сила».

MEDIA EDUCATION IS AN INTEGRAL PART OF MODERN EDUCATION

Annotation. The article discusses the importance of media education as an integral part of educational processes in the modern information age, as well as the development of students' critical thinking skills, information analysis and conscious perception of media products through digital literacy, foreign experience and practical approaches.
Key words: media literacy, media education, "Umbrella", information, information society, media product, "fifth element", Internet, "Information is power".

Hozirgi axborot asrida "mediasavodxonlik", "mediata'lim", "mediamadaniyat" "mediatahdid" kabi so'zlarni tez-tez uchratmoqdamiz. Ta'kidlash joizki, 2007-yil YUNESKO tomonidan mediasavodxonlik tushunchasi soyabonga qiyos qilingan edi. "Soyabon" o'z vazifasidan kelib chiqib kishilarni, ayniqsa yoshlarimizni turli axborot "yomg'irlari"dan himoya qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, media insonlarning ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ya'ni axborot olish, ma'lumotlarni to'plash va bilim olish ehtiyojlarini qondirish vositasi hamdir.

Tadqiqotchilar tomonidan media tushunchasi turlicha talqin qilingan[1]. Ma'lumki, nafaqat diniy va huquqiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan Avesto kitobida suv, olov, tuproq va havo e'zozlangan. Bugun ushbu omillarning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini, ularni asrab-avaylab e'zozlamaslik inson salomatligiga, qolaversa, jamiyat sohalarining rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Shu ma'noda biz mediasavodxonlikni va u orqali internet olamini beshinchi "unsur" ga qiyoslashimiz mumkin.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Chunki bugungi kunda nafaqat ta'lim sohasi, balki har bir soha internet savodxonligini talab qilmoqda va hayotimizga chuqur kirib kelmoqda. Agar undan me'yorida, maqsadli foydalanilsa, u inson uchun bilimlar manbai, agarda shunchaki ijtimoiy tarmoqlar jozibadorligiga qaram bo‘lib, noo‘rin foydalanilsa, u inson uchun balo - qazolar manbai bo‘lishi hech gap emas. Demak, maqsad media maydondagi ma'lumotlar yoki internet jozibadorligida emas, undan foydalanuvchilarda, aniqroq qilib aytsak har bir insonning mediama'naviyatiga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Buyuk Britaniyalik mediapedagog Devid Bukingemning fikricha, "Axborotlashgan jamiyatda yoshlar, albatta mediamahsulotlarni passiv qabul qilishadi va albatta, mediamateriallarning qurbonlariga aylanishadi"[2]. Biroq, mediapedagogika bolaning o‘zini, ya'ni shaxsini markaziy o‘ringa qo‘yadi. Boladagi mediabilim va tajribaga asoslanadi. Shu o‘rinda media – ma'naviy mahsulotlarning virtual bozori. Bu bozorda hech kim "molim yomon" demaydi. Buzg‘unchilar, johillar ham o‘zlarining yovuz niyatlari, buzg‘unchi g'oyaviy mahsulotlarini "molim yaxshi", deb bozorini yurgizmoqchi bo‘ladi. Insonlarning ana shu virtual bozor taklif etayotgan mahsulotlarni harid qilishda adashmasligi muhim va bunda mediata'limning ahamiyati kattadir.

Mediabozordan foydalanish har bir insonning madaniyat va ma'naviyatiga bog‘liqligini ta'kidlagan holda shu tavsiyalarga e'tibor berishimiz lozim:

Birinchidan, yosh yigit-qizlar mediamatnlarni o‘qiyotgan yoki tomosha qilayotgan paytda, ularni qabul qilishi, tahlil qilishi, baholashlari;

Ikkinchidan, zamonaviy jamiyatda mediamahsulotlarning ijtimoiy, ma'naviy, mafkuraviy, madaniy kontekstini tushunishlari muhim hisoblanadi. Bu jarayonda mediamadaniyatni qanday qabul qilishlari odamlarning raamli savodxonligiga bog‘liq bo‘ladi.

Har bir foydalanilayotgan uyali aloqa vositalari yoki kompyuterlar ochiq tizimlardan iborat, ya'ni odamlarning virtual olam bilan fikr, resurs almashinib, muloqotda yashash imkoniyatlarini beradi. Shunday ekan, har birimiz u yoki bu tahdidga nishon bo‘lishimiz mumkin. Yovuz g‘oyalar doimo mavjud bo‘lgan va ularning keng yoyilishi uchun minglab tashviqotchilar "xizmat" qilishlari kerak bo‘lgan. Lekin shu jihat e'tiborliki, ezgu g‘oyalar, xalqlarning milliy qadriyatlari va an'analari vayronkor g‘oyalarga qarshi tura olgan. Suning uchun vayronkor g‘oyalarning hammasi ham sivilizatsiyaga katta zarar yetkaza olmagan. Shunday ekan, yoshlarni mediaxavflardan saqlash uchun ularga media mahsulotlarni tanlash va foydalanishni o‘rgatish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Biroq, muammo shundaki, hamma ham mediamadaniyat qoidalariga (axborotni olish, uni tahlil qilish, axborotni uzatish qoidalarini bilish va eng muhim qoida keraksiz axborotdan halos bo‘la olishni bilish) amal qila olmaydilar. Buning ustiga axborot texnologiyalarining shitobi shunchalar tezki, unga be'etibor bo‘lishlik turli noqulayliklarni keltirib chiqaradi.

Mediamahsulotlar ham tovar yoki ma'naviy mahsulot ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Moddiy narsalarga e'tiborsizlik, tartibsiz, nazoratsiz yeb-ichish oshqozonni buzadi, turli kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ma'naviy mahsulotlarni qabul qilish esa, undan-da ko‘proq e'tibor va xushyorlik talab qiladi. Mediamahsulotlarni qanday bo‘lsa, shunday qabul qilish asrlar davomida yoshlar ma'naviyatida shakllanib kelgan milliy qadriyatlarimiz tizimini izdan chiqaradi. Qadriyatlar tizimi buzilsa, uni dori-darmon bilan tuzatib bo‘lmaydi.

Mediamadaniyat - bu turli mediamahsulotlarni tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi. Ma'naviy mediamahsulotlarni qabul qilishdan oldin uning tartiboti, ma'lumot tarqatuvchining maqsadi va mazkur mahsulotga nisbatan aholining tanqidiy bahosi bilan atroflicha tanishmoq kerak. Boshqacha aytganda, har bir mahsulotni mafkuraviy

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

immunitet orqali, ichki tekshiruvdan o‘tkazib, shundan keyingina qabul qilish maqsadga muvofiq. Bunday madaniyat mediamahsulotlarga tanqidiy yondashuvni belgilab beradi, aldanib qolishlardan insonni asraydi. Demak, mediasavodxonlik va u orqali mediata’lim jamiyatni dezinformatsiya ko‘rinishlaridan himoya qiladi.

So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ogohlikning shaxs va jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida shunday yozganlar:

Erursen shox – agar ogohsen sen,

Agar ogohsen sen – shoxsen sen.

Ushbu satrlarda ogohlikning inson hayotida naqadar muhim ekanligi aks etgan. Bu zamon va makonlarga bo‘ysinmaydigan universal mediaqonuniyatdir. Zero, ayrim siyosatshunoslar va media tadqiqotchilar quyidagi nazariyalarni ilgari surishgan:

- muhim ma’lumotga ega bo‘lish - bu hokimiyata ega bo‘lish (“Information is power”);
- keraklisini keraksizidan ajratish va yanada ko‘proq hokimiyatga ega bo‘lish;
- kerakli ma’lumotlarni o‘z rejissurasiga asoslanib tarqatish yoki ushlab turish orqali ikki karra hokimiyatga ega bo‘lish. Fransuz faylasufi Mishel Fukoning fikricha “Har qanday bilim – bu hokimiyatdir. Kim axborotni boshqarsa, u hokimiyatga ega bo‘ladi”[3].

Mediabozorda tayyorlovchi, tayyorlangan mahsulot, mahsulot(axborot)ni yetkazib beruvchi va istemolchi ishtirok etadi.

Tayyorlovchi - bu g‘oya muallifi, materiallarni to‘playdi, tahlil qiladi va mediamahsulotni tayyorlaydi.

Mahsulot (axborot) - matn, belgi, surat va ramzlarda ifodalangan ma’lumot. Mahsulot (axborot)ni uzatish vositasi - bu media.

Istemolchi - bu axborotni oluvchi, o‘rganuvchi, talqin qiluvchi shaxs.

Ba’zi ish beruvchilar xodimni ko‘proq ishlatib, maoshni kamroq berish uchun turli-tuman vajlarni keltiradi. Muzokara olib borayotgan ba’zi diplomatlar ham axborotdan foydalanib, refleksiv boshqaruv texnologiyasini ishga solishadi. Maqsad qulay shart-sharoitlarga ega bo‘lish. Bulardan ko‘rinadiki, axborot - manfaatlarga erishishning asosiy quroliga aylanib bormoqda.

Bugungi kun taraqqiyotini global axborot tarmog’i yoki internetsiz tasavvur qilib bo‘lmaganidek, yoshlarimizni uning to‘riga tushishidan asrashimiz, internetdagi vaqtimizni yangi bilimlarni o’zlashtirish, chet tillarini o‘rganish kabi foydali ishlarga sarflashimiz, shuningdek, milliy internet makonida kiberxavfsizlikni ta’minlash hamda fuqarolarning internetdan foydalanish borasidagi savodxonligini oshirish[4] orqali internet makonida milliy axborot maydonini yaratish hamda milliy axborot madaniyatini shakllantirish, texnologik tenglikni ta’minlash, mediata’limning ijobiy jihatlarini yanada kuchaytirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Маматова Я, Сулайманова С., Ўзбекистон медиатаълим тараққиёти йўлида. Ўқув қўлланма.–Т.: “Extremum- press”, 2015. Norboyeva M. Axborot va undan yoshlarning foydalanish xususiyatlari. *Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021.*
2. Shermanova F.D. Zamonaviy oilada maktabgacha yoshdagi bolalarni mediata’lim muhitiga tayyorlash // *Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami (30-sentabr, 2021-yil) 63-bet.*

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-5

3. Фуко М. Интеллектуалы и власть: Избранные политические статьи, выступления и интервью. М., 2002.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 158-son Farmoni